




“OZOD SHARAFIDDINOV - MATONATLI XALQ IJODKORI”

Amankulova Iroda Nurmuhammad kizi

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar

Universiteti, PR va menejment fakulteti Mediamarketing

1-bosqich talabasi

irodaomonqulova2@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14807966>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 23-yanvar 2025 yil

Ma'qullandi: 25-yanvar 2025 yil

Nashr qilindi: 31-yanvar 2025 yil

*munaqqid, matonatli, tanqid,
 ritorika, mafkura, poeziya, qatag'on,
 dissertatsiya, risola.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada Ozod Sharafiddinov so'nmas ijodi, adabiy-tanqidiy maqolalari, munaqqid faoliyati va shijoatga to'la qalbi haqida fikrlar keltirilgan. Adabiyotimizni boyitgan tadqiqotlari va tarjima asarlari to'g'risida ham mulohazalar keltirilgan.

“Kimligimdan, yosh-u qariligimdan, kasb-u korimdan qat'i nazar, bilamanki, mensiz Vatanimning nimasidir kemptik, noto'kis bo'lib qoladi. Ayni chog'da shuni ham bilamanki, Vatanim menga ko'proq kerak. Vatan mensiz yashashi mumkin, lekin men Vatansiz yashay olmayman!”

Ozod Sharafiddinov

XX asr o'zbek adabiyoti va tanqidchiligi tarixini, kengroq qilib aytsak, xalqimiz ma'naviyati va tafakkuri rivojini Ozod Sharafiddinov ijodiy faoliyatisiz to'liq tasavvur etib bo'lmaydi. 1950-yillarda faoliyat ko'rsatgan adabiyotshunoslar, publisistlar silsilasida Ozod Sharafiddinovning nomi alohida bir cho'qqi yanglig' ko'zga tashlanib turadi. Ozod Obidovich Sharafiddinov 1929-yil 1-martda Qo'qon yaqinidagi Oxunqaynar qishlog'ida tug'ilgan. 1951-yilda Ozod Sharafiddinov O'rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston milliy universiteti) filologiya fakultetini tamomlab, Moskva Jahon adabiyoti instituti aspiranturasida tahsil olib, nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Ozod Sharafiddinov adabiyot, adabiy tanqid maydoniga o'tgan asr 50-yillarining o'rtalarida mamlakatda mustabid tuzum adabiy siyosati qisman yumshagan, erkinlik shabadalari esa boshlagan bir paytda kirib kelgan. O'sha kezlari adabiy hayotda, tanqidchilik rivojida yangi bir to'lqin boshlandi. Ozod Sharafiddinov ana shu to'lqinning oldingi safida bordi, so'z san'atidagi sog'lom kuchlar, umidbaxsh tamoyillarning, navqiron iste'dodlarning ixtirochisi va himoyachisi sifatida tanildi. Munaqqid adabiyotimiz osmonida mitti yulduzlar – Erkin Vohidov, Abdulla Oripovlar paydo bo'lganida – bu istiqboli porloq chin iste'dodlarni tanqidchilikda ilk bor kashf etdi, ularni yangi ijodiy parvozlarga ruhlantirdi.

Ozod Sharafiddinovning XX asr yangi o'zbek adabiyotining mustabid adabiy siyosat tazyiqi va tahdidlari tufayli toptalgan tarixini tiklash, qatag'on qilingan adiblar merosini xalqqa qaytarish yo'lidagi jonbozliklari ayni ilmiy-ijodiy jasoratning chin namunasidir. Mustabid tuzum sharoitida bunday kurash va shijoatlar qanchalar qimmatga tushganini tasavvur qilishining o'zi qiyin. “Tobutdan tovush” komediyasi haqidagi ilhom va ehtiros bilan

yozilgan maqolasi, mafkuraviy-siyosiy jihatdan “nomaqbul” she’rlar mualliflari E.Vohidov, A.Oripovlarga ustozlik qilgani uchun ta’na-dashnomlarga uchradi.

Nihoyat, istiqlool kunlari keldi. Ozod Sharafiddinov singari zahmatkashlar yelkasiga ham oftob tegdi. Uning yangi bosqichdagi ilk mashg’uloti – o’ttiz yillik orzu-armoni Cho’lponni yuzaga chiqarishdan boshlandi. “Kecha va kunduz” romani munaqqid so’zboshisi bilan qayta dunyo yuzini ko’rdi. Ozod Sharafiddinov rahbarligida Cho’lponning avval bir jildlik, so’ng uch jildlik asarlari nashrga tayyorlandi, “Adabiyot nadir” to’plami chop etildi. Cho’lpon ijodi tadqiqiga bag’ishlangan ilk dissertatsiyalarga rahbarlik qildi, Cho’lpon adabiy merosiga oid ko’plab maqolalar, ikkita risola yaratdi. Ayniqsa, “Cho’lponni anglash” asari ma’naviy-madaniy hayotimizda muhim hodisa bo’ldi.

Ozod Sharafiddinov asosiy ilmiy-pedagogik faoliyati bilan bir qatorda ma’naviy-ijtimoiy sohalarida ham faollik ko’rsatgan o’qituvchi professor bo’lgan. Shunday qilib, u yosh iste’dodlarni tarbiyalash va shakllantirish borasida samarali faoliyat olib bordi. Olim qirq yil davomida O’zbekiston Milliy universitetida tinimsiz mehnat qildi, g’amxo’r va e’tiborli ustoz bo’ldi.

Ozod Sharafiddinov jismonan va ruhan har qancha sog’lom, matonatli bo’lmasin, uzoq yillik muntazam tazyiq, tahdid, kamsitishlar baribir o’z asoratini ko’rsatdi; 90-yillar o’rtalariga kelib u og’ir dardga chalindi, ikki bor jarrohlik amaliyotini boshdan o’tkazdi, oyog’idan ajraldi, buning ustiga boshqa xastaliklar qo’shildi. O’sha og’ir damlarda birinchi prezidentimiz uning holidan xabar olib, unga har jihatdan dalda berib turdi, “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirladi. Ulkan ehtirom, ishonch-e’tibordan ruh olib, keksaligi va xastaligiga qaramay bu alloma mislsiz g’ayrat-shijoat bilan ijodiy ishga kirishdi.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov o’zining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida Ozod Sharafiddinovga shunday tahsinga sazovor gaplarni keltirib o’tgan: “O’ylaymanki, o’zini o’zbek xalqining farzandi degan har qaysi inson ana shunday fidoyi yurtdoshlarimiz bilan cheksiz faxrlanadi, unib-o’sib kelayotgan bolalari, shogirdlariga ma’naviy jasorat timsoli sifatida aynan mana shunday odamlarni namuna qilib ko’rsatadi. Va hech shubxasiz, umr bo’yi el-yurt manfaati, Vatan istiqboli uchun kurashib yashaydigan shunday qahramon farzandlari bor xalq hech qachon kam bo’lmaydi”.

Vatan – ona so’zi naqadar laziz,

Sensan har narsadan mo’tabar aziz,

Hurimatingni saqlar har bir o’g’il-qiz,

Muqaddas, mo’tabar, ulug’ Vatanim,

O’lsam ayrilmasman quchoqlaringdan...

Hech bir yozuvchi, shoir, tarjimon, tanqidchi va hech bir kitobxon Ozod Sharafiddinov ijodini shu misralarsiz tasavvur eta olmasa kerak. U bu misralar orqali Vatan o’zi nima ekanligi, nima uchun uni sevib asramog’imiz kerakligini ochiq-oydin tushuntirib bergan.

Ozod Sharafiddinov biz yosh avlodga tengsiz adabiy meros qoldirgan. Turli to’plamlardagi maqolalar, kirish so’zlar va so’ngso’zlar, suhbatlar, alohida chop etilgan asarlar, tarjima asarlari ustozni nihoyatda barakali, sermahsul ijod qilganidan dalolat beradi. Ozod Sharafiddinov kitobxonlarni asar o’qishga, badiiy adabiyotdan bahramand bo’lishga da’vat qilgan. Ijodkor badiiy adabiyot orqali o’tmish bilan birga bugungi kunimizni yaxshiroq anglab olishimizga ishongan. “Adabiyot insonga olam haqida bilim berish bilan birga, ayni choqda, uning ruhiy olamini boyitishga, uning qalbida umumbashariy ma’naviy e’tiqodlarning barg yozishiga ko’maklashadi.” – degan edi olim.

Ozod Sharafiddinovning “Iste’dod xalq mulki” degan iborasi mag’rur jaranglaydi. Olim serqirra ijodkor, odil inson, xalq farzandlarini adabiyotni tushunishga o’rgatgan buyuk ustozdir. Ozod Sharafiddinovning faoliyatini o’rganish bizga munaqqidning o’ziga xos maktabi bilan yaqindan tanishish, targ’ib qilish imkonini beradi. Vatanga muhabbat har birimizga berilgan ulug’ ne’mat ekanligini bot-bot takrorlagan ustozimiz o’zining haqqoniy so’zi, iroda va matonati bilan yurtdoshlarimizga, avvalambor biz yoshlarga ibratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

- 1.Ozod Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. T.Sharq 2004
- 2.Ozod Sharafiddinov – millat qahramoni 2022
- 3.Ozod Sharafiddinov ijodida davr va ijodkor shaxs talqini 2023
4. [“OZOD SHARAFIDDINOV – BUYUK O’ZBEK MUNAQQIDI SIFATIDA” | Новости образования: исследование в XXI веке](#)
- 5.Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch 2008

INNOVATIVE
ACADEMY